7-ma'ruza. Matnni o'qish usullari

Reja:

1. Adabiyotlarni o'qish bo'yicha tavsiyalar.
2. Matnni o'qish usullari.

Tayanch so'z va iboralar:

So'z boshi, kirish, mundarija, xotima, kitobning asosiy masalasi, muallifning qarashlari, boblar va mavzular, bobga yozilgan maxsus izohlar, kitob bilan dastlabki tanishuv, kitobni varaqlash, noto'g'ri o'qish, yomon o'qish, ilmiy fikrlash, ilmiy va o'quv adabiyotlarini o'qish, badiiy adabiyotlarni o'qish, chuqur tushunib o'qish usuli, tez o'qish usuli, panoramali tez o'qish usuli, tanlab o'qish usuli, ko'z yugurtirish (skimming) va skanerlab o'qish usullari.

1. Adabiyotlarni o'qish bo'yicha tavsiyalar

Biror texnik adabiyotni o'qish oldidan u bilan oldindan tanishib olish zarur. Bu keyinchalik uni o'qishga sarflanadigan vaqtni, kuchni tejashga va tezroq maqsadga erishishga yordam beradi.

Adabiyot haqida umumiy tasavvurni so'z boshi, kirish, mundarija va xotima qismlaridan olish mumkin. So'z boshi odatda, kitobni o'qishdan oldin e'tibor qilinadigan narsalar haqida ma'lumot berish zaruriyati bo'lgandagina keltiriladi. Unda yangi ilmiy g'oyalar berilishi, kitobning asosiy masalasi qo'yilishi va kitobni o'qishga undovchi materiallar berilishi mumkin. Kitobxon bu masalalarni o'zi izlab topishi uchun juda ko'p vaqt sarflagan bo'lar edi.

So'z boshi o'rniga kirish qismi ham keltirilishi mumkin. Unda ham masalaning qo'yilishi, dolzarbligi, kitobni bayon qilish usuli keltirilishi mumkin.

Kitobni o'qimasdan turib ham uning mundarijasidan asosiy masalalari, umumiy mazmuni va muallifning muammoga bo'lgan qarashlari bilan tanishish mumkin. Ilmiy va o'quv adabiyotlarini o'qishda doim mundarija bilan ishlash yaxshi natija beradi. Chunki, mundarijada adabiyotning tuzilishi aniq ko'rinib turadi.

Agar mundarijada boblar va ularning ichidagi mavzular ham keltirilgan bo'lsa, albatta, avval boblarni va ularning ierarxiyasini yaxshi bilib olish kerak. Agar kitobda har bir bobga maxsus izohlar yozilgan bo'lsa, ular bilan yaxshilab tanishib chiqish kerak. Shundan so'ng mavzular bilan tanishiladi.

Xotima qismida kitobda ko'tarilgan asosiy masalalar yuzasidan juda muhim xulosalar keltirilishi mumkin. Bu qismda biz kitob bizga nima berishini bilib olamiz.

Talabaning kitob sohasiga oid bilimlari qanchalik yuqori bo'lsa, dastlabki tanishuv jarayonida u asosiy ma'lumotlarni to'liq oladi. Kitob haqida yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'lish uchun uni varaqlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda dastlabki tanishuvda e'tibor qilinmagan ko'p narsalar ayon bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlar bilan ishlashda ularni tushunib olish va o'qib bo'lganidan so'ng mazmunini aytib bera olish juda muhim. Yomon tomonlaridan biri uning mazmunini noto'g'ri talqin qilishdir, bu fikrlamasdan, yetarli vaqt ajratmasdan noto'g'ri o'qish belgisidir.

Kitob o'qiyotganda biz muallifning fikriga qo'shilsak bizni qiynayotgan savollarga javob olamiz, o'zimizning fikrimiz bilan taqqoslaymiz, xulosa chiqaramiz. Agar fikriga qo'shilmasak, yondashuvini noto'g'ri deb hisoblasak tanqid ostiga olamiz, inkor qilamiz. Kimki agar kitob o'qiyotganda mana shunday yondashmasa u yomon o'qiyotgan bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarni o'qiganimizda yetuk olimlarning qanday fikrlashini kuzatamiz, ularning xulosalarini baholaymiz, fikrini bayon qilish, muammoni tadqiq qilish, isbotlash va izohlash usullarini o'zlashtirishga harakat qilamiz. Shu tarzda biz ilmiy fikrlashni o'rganamiz. Bu fikrlarimizni qayta ko'rib chiqish va tartibga solish hamda rivojlantirish uchun juda muhim. Badiiy adabiyotlarni o'qiganimizda esa hayotiy tajriba orttiramiz, noyob hissiyotlar paydo qilamiz, erkin fikrlashni o'rganamiz.

Ilmiy va o'quv yoki badiiy adabiyotlarni o'qishda jiddiy maqsad qo'yilishi kerak. Ilmiy va o'quv adabiyotlarini o'qiganda – yangi ma'lumot olish yoki kasbiy bilimlarni oshirishni, ilmiy fikrlashni o'rganishni, badiiy adabiyotlarni o'qiganda esa – oliy qadriyatlarni o'zlashtirish, noyob hislarni tuyish, dunyoqarashni kengaytirish, ma'naviy ozuqa olish, ruhiyatni ko'tarishni maqsad qilib qo'yish lozim.

2. Matnni o'qish usullari

Oldingi mavzularda asosan tez o'qish haqida ko'p ma'lumotlar berilgan. Tez o'qishni o'rgangan odam hamma matnlarni ham tez o'qiydimi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Albatta, bunday bo'lmaydi. Tez o'qishning ham o'z chegaralari bor. Tez o'qish usuli matndan axborotlarni to'liq o'zlashtirishning yagona usuli emas.

Biz matn mazmunini o'zlashtirishda boshqa usullardan

ko'proq foydalanamiz. Quyida ushbu o'qish usullari haqida ma'lumot beramiz.

Barcha o'qish usullari 5 guruhga bo'linadi. Har safar biror matnni o'qiyotganimizda biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz, bajaradigan vazifalarimiz va vaqt byudjetimizdan kelib chiqib ulardan birortasini tanlaymiz. Bular:

1) chuqur tushunib o'qish usuli;
2) tez o'qish usuli;
3) panoramali tez o'qish usuli;
4) tanlab o'qish usuli;
5) ko'z yugurtirish va skanerlab o'qish usullari.

Chuqur tushunib o'qish usuli. Bunda e'tibor barcha detallarga qaratiladi, ular tahlil qilinadi va baholanadi. Ba'zi pedagoglar chuqur tushunib o'qishni *analitik, kritik, ijodiy* o'qish deb ham atashadi. Bu usul o'quv adabiyotlarini o'qishda eng yaxshi usul hisoblanadi. Bunda talaba matnni o'qiydi va o'ziga tushunarsiz bo'lgan joylarni aniqlashtiradi, masalaga tanqidiy yoki ijodiy yondashadi, izohlarda kuchli va kuchsiz tomonlarni aniqlaydi, fikrlarga va xulosalarga mustaqil izoh beradi. Bu o'qilgan materialning esda yaxshi saqlanib qolishiga va mashg'ulotlarda faol bo'lishga olib keladi. Bu usul bilan darsliklar, notanish va murakkab mavzudagi matnlar o'qiladi.

Tez o'qish usuli. Bu usul oldingi ma'ruzalarda batafsil ko'rib chiqilgan. Tez o'qishni yaxshi o'zlashtirib olgan odam ba'zi hollarda chuqur tushunib ham o'qiydi.

Panoramali tez o'qish usuli. Bu tez o'qishni o'zlashtirgandan so'ng orttiriladigan usul hisoblanadi. Bunda maxsus stereojadvallar bilan mashq qilib ko'rish maydonini sezilarli darajada kengaytirish mumkin. Fuzion divergentsiya effekti, ya'ni ko'zning ko'rish o'qlarini yoyish jarayoni sodir bo'ladi. Buning natijasida o'qish tezligi va tushunish sifati yanada ortadi.

Tanlab o'qish usuli. Bu ham tez o'qishning bir turi bo'lib, bunda matnning alohida qismlari tanlab o'qiladi. Talaba go'yoki hamma narsani ko'rib turadi va hech narsani nazaridan qochirmaydi, diqqatini matnning faqat o'ziga zarur bo'lgan jihatlariga qaratadi. Tanlab o'qish usuli odatda kitobni ikkinchi marta o'qiyotganda yoki dastlabki tanishishdan so'ng qo'llaniladi. Tabiiyki, bunday o'qishda tez o'qishdagidan ham tezroq o'qiladi. Chunki, kitobning sahifalari zarur bo'lim topilmaguncha varaqlanadi, bu zarur bo'lim chuqur tushunib o'qiladi.

Ko'z yugurtirish usuli (skimming). Bu usul kitob bilan dastlabki tanishishda qo'llaniladi. Bu usul oddiy bo'lsa ham uni ko'pchilik qo'llashmaydi, lekin, bu usul juda ham zarur usul. Mashhur rus bibliofili N.A. Rubakinning qanday o'qish texnikasidan foydalanganini haqida ma'lumotlar mavjud. U kitobning qimmatini hayratlanarli darajada tez baholay olgan. Kitobni qo'liga olib so'z boshini ko'zdan kechirgan, mundarijasidan muallifning fikrlari va qarashlarini bilim olgan, xotima qismidan xulosalarni bilib olgan va shu tarzda kitobga tezda bexato baho bera olgan.

Skanerlash usuli. Biror axborotni topish uchun matnni tez ko'rib chiqish usuli hisoblanadi. Tez o'qiydigan odam an'anaviy usulda o'qiydigan odamga qaraganda 2-3 marta tezroq izlaydi. Ko'rish qurilmasini va ayniqsa, ko'rish maydonini rivojlantirish va mashq qilish orqali varaqdagi matnga bir qarashda zarur ma'lumotlarni ko'rishga muvaffaq bo'linadi.

Yuqoridagi 5 ta o'qish usuli bir qarashda oddiy bo'lib ko'ringan matnni o'qish jarayonining muammolari murakkab va turlicha ekanini ko'rsatadi. Bu o'qish usullarini o'rganish ham tez o'qishni o'rganish kabi juda muhim hisoblanadi. O'qish mahorati o'qish maqsadiga, matnning xarakteriga va vaqt byudjetiga qarab har safar mos rejimni tanlash ko'nikmalari bo'lishini nazarda tutadi.

Nazorat savollari

1. Kitobda qanday holatlarda so'z boshi keltiriladi?
2. Kitobda qanday holatlarda kirish qismi keltiriladi?
3. Mundarijadan qanday ma'lumotlarni olish mumkin?
4. Kitobning xotima qismida qanday ma'lumotlar keltirilishi mumkin?
5. Kitobning asosiy masalasi deganda nimani tushunasiz?
6. Muallifning qarashlarini qanday qilib tez bilib olish mumkin?
7. Kitob mundarijasini o'qishda boblar va mavzular bilan qanday tartibda tanishiladi?
8. Kitobda bobga yozilgan maxsus izohlarni qachon o'qish kerak?
9. Kitob bilan dastlabki tanishuv qanday kechishi kerak?
10. Kitobni qachon, qaysi bosqichda varaqlash maqsadga muvofiq?
11. Noto'g'ri o'qish nima? Yomon o'qish nima?
12. Kitob vositasida qanday qilib ilmiy fikrlashni o'rganish mumkin?
13. Ilmiy va o'quv adabiyotlarini qanday o'qish kerak?

14. Badiiy adabiyotlarni qanday o'qish kerak?
15. Chuqur tushunib o'qish usulini izohlang.
16. Tez o'qish usulini izohlang.
17. Panoramali tez o'qish usulini izohlang.
18. Tanlab o'qish usulini izohlang.
19. Ko'z yugurtirish (skimming) usulini izohlang.
20. Skanerlab o'qish usulini izohlang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреев О.А., Хромов Л.Н. Учитесь быстро читать. М. 2005, 129 с.
2. Поварнин С.И. Как читать книги. М.: Изд. “Память”, 1994 г.